



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA FONETIK KOMPETENSIYANING NAZARIY ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Naima Mamasidikova Toxirjon qizi

Turan xalqaro universiteti o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12741880>

Annotatsiya: ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida fonetikaning nazariy asoslarini shakllantirishning ahamiyati, yangi interfaol metodlardan foydalanish afzalliklari tahlil qilinadi va yoritib beriladi. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fonetik kompetensiyani rivojlanishga yordam beradigan asosiy strategiyalar va fikrlarni ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, ta’lim, savod o‘rgatish, metod, fonetika, nutq tovushi va harf, bo‘g‘in.

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ ОСНОВЫ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Наима Мамасидикова Тахиржан кизи

Преподаватель Международного университета Туран

Аннотация: в данной статье рекомендуется и подчеркивается важность формирования теоретических основ фонетики на занятиях по родному языку и читательской грамотности у учащихся младших классов, приводятся примеры новых интерактивных методов. В статье выделены основные стратегии и идеи, которые помогают развивать фонетическую компетентность у учащихся младших классов.

Ключевые слова: начальная школа, образование, обучение грамоте, методика, фонетика, звук и буква речи, слог.



METHODS OF FORMING THE THEORETICAL BASIS OF PHONETIC COMPETENCE IN PRIMARY GRADES

Naima Mamasidikova Taxirjan kizi

Teacher of Turan International University

Abstract: this article recommends and highlights the importance of forming the theoretical foundations of phonetics in the classes of mother tongue and reading literacy in elementary school students, examples of new interactive methods. The article highlights the main strategies and ideas that help to develop phonetic competence in elementary school students.

Key words: elementary school, education, teaching literacy, method, phonetics, speech sound and letter, syllable.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagisi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “2020-2030- yillarda o‘zbek tilini rivojlanterish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi” [1] qabul qilindi. Bu Respublikamizda davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish va o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI:

Nutq tovushlarining hosil bo‘lish usullarini o‘rganish 17-asrda boshlangan bo‘lib, bu kar va soqovlarni o‘qitish ehtiyojidan kelib chiqqan (ispaniyalik X.P.Bonet, angliyalik J.Uilkins, niderlandiyalik I.Amman asarlari). Tilning tovush tomonini har jihatdan lingvistik nuqtai nazardan o‘rganish birinchi marta nemis olimi E.Ziversning „Tovush fiziologiyasi asoslari“ (1876, 2-nashri „Fonetika asoslari“ deb nomlanadi, 1881) asarida kuzatiladi. Rossiyada umumiy fonetikaning rivojiga I.A.Boduen de

Kurtene va uning shogirdlari V.A.Bogoroditskiy va L.V.Shcherbalar o'z asarlari bilan muhim hissa qo'shdilar [7].

Fonetika tilning boshqa sohalari bilan bog'liq, chunki tovush, urg'u va ohangsiz bo'g'in, so'z, so'z birikmasi va gap bo'lmaydi. Shu tufayli fonetika leksika, morfologiya, sintaksis va stilistika bilan bog'liq til bosqichi deb qaraladi. O'zbek tili fonetikasi ham chuqur o'rganilmoqda. O'zbek tilining tasviriy fonetikasini tadqiq qilishda V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, fonetika A.Abdullayev, A.G'ulomovlar; o'zbek tili fonetikasini 60-yillar oxiridan eksperimental o'rganishda A.Mahmudov va S.Otamirzayevalar; o'zbek tilining tarixiy fonetikasini o'rganishda fonetika A.Abdullayev, G'.Abdurahmonov, A.Rustamov, Q.Mahmudov, H.Ne'matov, E.Umarovlarning xizmatlari katta.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tili va o'qish savodxonligi darslarida fonetikaning nazariy asoslarini shakllantirishning ahamiyati yangi interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati yoritib berildi va maqolada fonetik kompetensiyani rivojlantirishda pedagogika, psixologiya, tilshunoslik, ona tili o'qitish metodikasi bo'yicha xorijiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilishdan foydalanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, kechinmalarni ifodalashda muhim o'rinn tutadi. Til jamiyat a'zolarining bir-biri bilan aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa fikr shunchalik aniq, ta'sirchan ifodalanadi. Boshlang'ich sinflarda ona tilini chuqur o'rganish zaruriyati tilning mana shu asosiy vazifalaridan kelib chiqadi [2, 144]. Mamlakatimizda ta'limning eng asosiy zamini hisoblanuvchi umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun Milliy o'quv dasturi ishlab chiqildi va “Milliy o'quv dasturi” deb nomlandi. Shuningdek, o'zbek tilini o'qitish metodikasini tubdan isloh qilish, ayniqsa Respublikamiz hududida istiqomat qiluvchi

barcha millatlar o‘zbek tilini jadal o‘rgatishni ta’minlaydigan zamonaviy darsliklar yaratish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

Bugungi kunga qadar Ona tili va O‘qish fanlari alohida o‘qitilar edi. Bu ikki fanni birlashtirgan holda yangi “Ona tili va o‘qish savodxonligi” deb nomlangan yaxlit fan dars soati saqlab qolning holatda tashkil etildi. Boshlang‘ich ta’limning ona tili fani o‘quv dasturi o‘quvchilarda fonetik kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Davlat ta’lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzildi. Ushbu o‘quv dasturida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch hamda fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko‘zda tutilgan. Boshlang‘ich ta’limda – o‘quvchilarda savodxonlikni ta’minalash, ularni og‘zaki va yozma nutqida adabiy nutq me’yorlariga rioya qilishga o‘rgatishdan iborat. Mazkur ona tili o‘quv dasturi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

- Savod o‘rgatish va nutq o‘stirish.
- Fonetika, grammatika, imlo va nutq o‘stirish [3].

“Fonetika” bo‘limining izchil kursi “Fonetika va grafika”, “Nutq tovushi va harf”, “Unli tovushlar”, “Undosh tovushlar”, “Nutq a’zolari”, “Lab tovushlari”, “Til tovushlari”, “Burun tovushlari”, “Bo‘g‘iz tovushi”, “Nutq tovushlarining ma’no farqlash vazifasi” singari mavzularni o‘z ichiga qamrab oladi. O‘quvchilar diqqatiga havola etib, bu so‘zdagi tovushlarning talaffuzini qiyoslash, unlilar va undoshlarning xususiyatlarini aniqlash, ularning talaffuzida ishtirok etadigan nutq a’zolarini belgilashni topishlari mumkin [4].

O‘qituvchi savod o‘rgatish jarayonida o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘quvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirish, ularni sintezlab o‘qishga o‘rgatishi zarur. Savod o‘rgatish analitik-sintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So‘z bo‘g‘inga bo‘linadi, bo‘g‘indan kerakli — o‘rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o‘rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o‘qish jarayoni o‘zlashtiriladi. Savodga o‘rgatish davrida o‘quvchilarga avval

unli tovushni o‘rgatishdan boshlanadi. Dastlab unli yozilishi talaffuziga mos keladigan so‘zlar tanlanadi.

Bolalarni yozuvga o‘rgatishda so‘z tarkibidagi harflarning to‘g‘ri, aniq yozilishi va qo‘shilishiga bolalar e’tibori qaratiladi. O‘qituvchining savod o‘rgatish davrdagi darslarni to‘g‘ri tashkil etishi, o‘quvchilarning fonetik va grafik bilimlarni kelgusida puxta egallahshlariga zamin yaratadi. O‘qituvchining bu sohadagi yutuqlarilari uning dars o‘tish usullari, mahorati, darsda qo‘llaydigan didaktik materiallarga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Intefao dars jarayonini tashkillashtirish, o‘quvchilarning dars davomida faollashuviga, ularni darsni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini o‘sishiga sabab bo‘ladi. O‘qituvchi dars o‘tish jarayonida o‘quv materiallarining ma’lum bir qismi o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘rganiladi, so‘ngra sinfda har tomonlama muhokama etiladi. Bu esa o‘quvchilarning o‘tilgan mavzuni puxta egallahshlariga zamin yaratadi.

Inrefao usullar xilma-hil bo‘lib, qaysi metodni tanlash o‘qituvchining o‘tayotgan mavzusi, darsning maqsadi va vazifalariga bog‘liq. Buning uchun o‘qituvchi doimo yangiliklar izlanishi, har darsda yangi-yangi usullarni qo‘llashi, o‘z bilimini doimiy ravishda oshirib borishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fonetik kompetensiyani rivojlantirish ularning tili va savodxonligini rivojlantirish uchun muhimahamiyatga ega. Fonetik kompetensiyani rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodlar orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarga fonetik ko‘nikmalarni mustahkam poydevor bilan ta’minlashi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, ularning so‘zlarni tahlil qilish qobiliyatini oshiradi, ravon o‘qishni yaxshilaydi va umumiyl til bilimlarini oshiradi. Fonetik kompetensiyani rivojlantirish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarga samarali muloqot qilish va ishonchli o‘quvchi va yozuvchi bo‘lish imkoniyatini beradi [5].

XULOSALAR.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’limning 1-4 sinflari bola hayotida muhim davrni tashkil qilib, o‘quvchilarning keyingi davrdagi o‘qish jarayoniga bo‘lgan tasavvurida eng ahamiyatli davrdir. Dars mashg‘ulotlari vaqtida har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchisini dars jarayonida faollashtira olsa, bolaning o‘qish, o‘zlashtirish, bilim, ko‘nikma, malakalarini egallash darajasi yuqori ko‘rsatkichlarni tashkil etadi.

Boshlan‘ich sinf o‘quvchilarida fonetik kompetensiyaning xususiyatlarini o‘rganish va fonetik kompetensiyani takomillashtirish usullarini ishlab chiqish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fonetik kompetensiyasini rivojlantirishga tayyorlash sifatini va ularning talaffuz darajasini oshirishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2019-yil 21-oktabr, PF-5850-son
2. G‘ulomov A., Qodirov A., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimova V. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent -2012.144-bet.
3. Ne’matov H. O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi, T.,
4. Baskakov N. A., Sodiqov A. S., Abduazizov A. A. Umumi tilshunoslik, T. 1999;
5. Mamasidikova N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fonetik kompetensiyani rivojlantirish //Academic research in modern science.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8080543>
6. <https://fayllar.org/ona-tili-fanidan-oquv-dasturi-1-2-4-sinf-uqtirish-xati.html>
7. Goncharova N.L. Tilshunos o‘quvchilarda tilning fonetik-fonologik kompetensiyasini shakllantirish: referat. dis. ...kand. ped. Sci. Stavropol, 2006 yil.